

No 01-12/3928«23» 10 2025 yil**“O‘zbekiston Respublikasi
milliy investitsiya jamg‘armasi” AJ****“O‘zRTXB”AJ aksiyadorlariga
(ro‘yxat bo‘yicha)****“O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi” aksiyadorlik jamiyati
aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risida
XABARNOMA****HURMATLI AKSIYADORLAR!**

“O‘zRTXB” AJ aksiyadorlariga **2025-yil 14- noyabr** kuni soat 11:00da aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishini ma‘lum qiladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishlarini masofadan turib internet tarmog‘ida onlayn rejimda o‘tkazishga mo‘ljallangan “Elektron ovoz berish - eVOTE” (<http://evote.uz/>) elektron ovoz berish servisi orqali o‘tkaziladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ishtirok etuvchi “O‘zRTXB”AJ aksiyadorlari reyestrini shakllantirish kuni: **2025-yil 10- noyabr**.

Kun tartibi:

1. “O‘zRTXB” AJ aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining reglamentini tasdiqlash.
2. Mustaqil auditorlik tashkilotini tanlash va unga to‘lanadigan haqning eng ko‘p haq miqdorini belgilash:
 - Buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida “O‘zRTXB” AJning 2025-yil moliyaviy-xo‘jalik faoliyati yakunlari bo‘yicha tuzilgan moliyaviy hisobotini majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish uchun;
 - Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida “O‘zRTXB” AJning 2025-yil moliyaviy-xo‘jalik faoliyati yakunlari bo‘yicha konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotini majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish uchun;
 - Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlari to‘g‘risidagi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi 207-son qaroriga ilova) talablariga muvofiq 2025-yil yakunlari bo‘yicha SMK va SYK miqdorlarining, shuningdek ularning bajarilishi foizlarining to‘g‘ri hisoblanganligini auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish uchun.

3. "O'zRTXB" AJning 2026-2030-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasini tasdiqlash.

4. 2025-yilda xayriya va boshqa beg'araz yordam uchun belgilangan xarajatlar miqdorini o'zgartirish.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ko'rib chiqiladigan materiallar bilan aksiyadorlar Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi 77-uyda joylashgan Birja binosida, 2025-yil 4-noyabr boshlab aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan kunga qadar ish kunlari soat 10-00 dan 16-00 gacha tanishib chiqishlari mumkin.

Aksiyadorlar <http://evote.uz/> internet saytining elektron ovoz berish servisi orqali yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxatiga kiritilganligi haqida elektron xabar olgan vaqtdan boshlab Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchi aksiyadorlar sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan deb hisoblanadi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida elektron ovoz berish servisi orqali ishtirok etish qoidolari (shartlari) bilan <http://evote.uz/> saytida tanishib chiqishingizni so'raymiz.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish va ushbu yig'ilishda ko'rib chiqiladigan materiallar bilan tanishish yuzasidan savollar bo'yicha (71) 207-00-33 (ichki:1045) telefon raqami orqali murojaat qilishingizni so'raymiz.

Aksiyadorlar o'z murojaatlarini quyidagi elektron manzillarga yuborishlari mumkin: info@rtsb.uz.

Boshqaruv raisi



A. Qayumov